RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Pulatov Hayotbek Abdugani o‘g‘li
CHDPU magistranti
Ilmiy rahbar: Ikramov Ravshan Aktamovich
yuridik f.n., professor

Annotatsiya. Maqolada raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt davrida inson huquqlarini himoya qilishning yangi institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. Shaxsiy ma’lumotlarning «raqamli mulk» sifatidagi huquqiy maqomi, «Raqamli Ombudsman» instituti va «raqamli gumanizm» tamoyillari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, raqamli mulk, Raqamli Ombudsman, raqamli gumanizm, shaxsiy ma’lumotlar.

XXI asr raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanish davri sifatida xotiraladi. Bu jarayon inson huquqlari va erkinliklarining mazmun-mohiyatini yangi qirralardan boyitmoqda. Zamonaviy huquqshunoslikda «raqamli huquqlar» (digital rights) tushunchasi keng qo‘llanila boshlandi, chunki an’anaviy huquqiy mexanizmlar kibermakondagi tezkor o‘zgarishlarni to‘liq qamrab ololmayotgani aniqlandi [1].

O‘zbekiston “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni ustuvor vazifa qilib belgilagan. Biroq, texnologik taraqqiyot bilan birga insonning virtual makondagi huquqiy himoyasi masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [2].

Raqamli huquqlar – bu insonning axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonidagi fundamental erkinliklaridir. Ular an’anaviy inson huquqlarining virtual muhitdagi transformatsiyasidir [3].

Akademik A.X. Saidov fikricha, inson huquqlarining universal tabiati ularning raqamli makonda ham amal qilishini taqozo etadi: “Xalqaro huquq normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi sud hokimiyatining mustaqilligini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi” [4]. B.O. To‘raev ta’kidlaganidek: “Texnologik taraqqiyot sharoitida inson qadri nafaqat jismoniy, balki raqamli makonda ham himoyalanishi kerak” [2]. Raqamli iqtisodiyotda shaxsiy ma’lumotlar yangi turdagi iqtisodiy resursga aylanmoqda. An’anaviy huquqshunoslikda shaxsiy ma’lumotlar shaxsiy huquqlar doirasida ko‘riladi, biroq zamonaviy yondashuv ularni «**mulk**» darajasiga ko‘tarishni taklif qilmoqda. B.O. To‘raevning fikricha: “Shaxsiy ma’lumotlar insonning raqamli mulki sifatida qaralishi va uning himoyasi davlatning institutsional vazifasiga aylanishi shart. Bu texnik ekspluatatsiyadan himoya qilishning eng samarali yuridik qalqonidir” [1]

Sun’iy intelekt tizimlari tomonidan qarorlar qabul qilinishi «**algoritmik kamsitish**» xavfini tug‘dirmoqda. Sun’iy intelekt tizimlarining huquqiy tartibga solinishi quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak: «**Inson halqasida**» (Human-in-the-loop) tamoyili. Hayotiy muhim qarorlarda yakuniy so‘z insonda qolishi kerak [1]. Algoritmik shaffoflik. Sun’iy intelekt tizimlari «**qora quti**»

tamoyilida ishlamasligi lozim. Har bir fuqaro Sun’iy intelekt tomonidan chiqarilgan salbiy qaror yuzasidan tushuntirish olish huquqiga ega.

Virtual makonda inson huquqlarini himoya qilishning an’anaviy mexanizmlari yetarli bo‘lmayotgani aniqlandi. Kibermakondagi huquqbuzarliklarning tezkorligi va chegara bilmasligi yangi tuzilmani talab etadi [1].

«Raqamli Ombudsman» quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

Shaxsiy ma’lumotlar noqonuniy tarqatilishi bo‘yicha murojaatlarni ko‘rib chiqish;

Internetdagi kamsitilishlar (cyberbullying) yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazish;

Algoritmik qarorlar ustidan nazorat o‘rnatish [5].

Sh.Ismoilov ta’kidlaganidek: “Raqamli huquqlar – bu an’anaviy inson huquqlarining virtual muhitdagi transformatsiyasidir” [3].

Raqamli transformatsiyada insonni texnologiyalar ob’ekti emas, balki sub’ekt sifatida saqlab qolish «raqamli gumanizm» konsepsiyasining mohiyatini tashkil etadi [2]. Bu konsepsiyaning asosiy prinsiplari: texnologiyalar ustidan huquqning ustuvorligi; inson markazlilik – barcha raqamli dasturlar inson manfaatlariga xizmat qilishi;

Raqamli inklyuzivlik – raqamli tafovut»ni bartaraf etish ilmiy maqolamizda biz quyidagi takliflarni berib o‘tishni joiz deb bildik: birinchidan, “Raqamli huquqlar kodeksi”ni qabul qilish – internetga kirish, shaxsiy ma’lumotlarni nazorat qilish va «raqamli unutilish» huquqlarini kodifikatsiya qilish[4]. Ikkinchidan, Inson huquqlari bo‘yicha vakil huzurida Raqamli huquqlarni himoya qilish sho‘basini tashkil etish [5]. Uchinchidan, “Inson huquqlari bo‘yicha ta’sirni baholash” (HRIA) tizimini qonunchilik jarayoniga majburiy tartibda joriy etish [4].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt davrida inson huquqlarini himoya qilishning an’anaviy mexanizmlari yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shaxsiy ma’lumotlarning «raqamli mulk” sifatidagi huquqiy maqomi, “Raqamli Ombudsman» instituti va «raqamli gumanizm» tamoyillari zamonaviy huquqshunoslikning dolzarb yo‘nalishlariga aylandi.

“Inson qadri uchun” tamoyilini raqamli davrda amalga oshirish uchun davlat, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘raev B.O. Raqamli boshqaruvda inson huquqlari institutsional kafolatlari // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – 2024. – № 1. – B. 58-62.

2. To‘raev B. Raqamli jamiyatda inson qadri: falsafiy va huquqiy yondashuvlar // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – 2024. – № 2. – B. 45-52.

3. Ismoilov Sh. Raqamli huquqlar va ularni himoya qilishning huquqiy mexanizmlari. – Toshkent: TDYuU, 2023. – 145 b.

4. Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq: Darslik. – Toshkent: Adolat, 2021. – 320 b.

5. Muhammadiev N. Ombudsman institutining inson huquqlarini ta’minlashdagi o‘rni // Huquq va burch. – 2024. – № 3. – B. 14-16.